Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320680

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

2. I. Jumayev. Statistik tahlil usullari va iqtisodiyot. Nashriyot, Toshkent, 2020, 150 bet.
3. D.Karimov. O'zbekiston iqtisodiyoti: tahlil va istiqbollar. Bosh nashriyot, Toshkent, 2019, 250 bet.
4. F.Rahmonov. Deskriptiv statistika va iqtisodiy tahlil. Statistika Nashriyoti, Samarqand, 2021, 180 bet.
5. N.Saidov. Iqtisodiy o'sishni tahlil qilish va prognozlash. Ilmiy Nashr, Buxoro, 2020, 220 bet.
6. O.To'laganov. Bandlik va aholi daromadlarini tahlil qilish metodlari. Iqtisodiyot Nashriyoti, Toshkent, 2019, 160 bet.
7. K.Yusupov. Raqobatbardoshlik va eksport salohiyatini oshirish. Rivojlanish Nashriyoti, Namangan, 2022, 190 bet.

MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT KORXONALARI IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Karimova Gulzira Ikromali qizi
FarDU tayanch doktoranti,
gulzirakarimova0790@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishning ahamiyati tadqiq etilgan. Shuningdek, mamlakatimizda barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida olib borilayotgan ishlar va ularning samarasi tahlil etilib, barqaror taraqqiyotga erishishda sanoat korxonalari tomonidan e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihatlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy salohiyat, barqaror rivojlanish, sirkulyar iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, "yashillashtirish".

Kirish. Bugungi murakkab globallashuv davrida mamlakatlarning iqtisodiy qudrati ularda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish nafaqat yalpi ichki mahsulotni oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega, balki barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ham markaziy o'rinni egallaydi. Biroq, sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatining oshishi, mavjud resurslarni kelajak avlodlarimiz ham o'z ehtiyojlarini qondira oladigan holatda saqlagan holda amalga oshirilishi kerak.

Ma'lumki, 2012-yil iyun oyida Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida BMTning Barqaror rivojlanish bo'yicha konferensiyasi o'tkazilgan. Unda xalqaro hamjamiyat tomonidan 2015–2030-yillarda amalga oshirilishi belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) qabul qilinib, ularni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan institutsional asos sharoitlarini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar kelishib olingan. Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)ning "Sanoatlashtirish, innovatsiya va infratuzilma" deb nomlangan 9-maqsadining mohiyati mustahkam infratuzilmani yaratish, keng qamrovli barqaror industrializatsiya va innovatsiyalarni hayotga tadbiq etishga ko'maklashishdan iboratdir.

Masalaning qo'yilishi va tadqiqot usuli. Tadqiqotning obyektini milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari tashkil etadi. Tadqiqotning predmeti sifatida esa milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishning ahamiyati va e'tibor berilishi zarur bo'lgan jihatlar olindi.

Published: 23.12.2024
Cite this article: Karimova Gulzira Ikromali qizi (2024). Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sanoat korxonalari iqtisodiy salohiyatini oshirishning ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320680
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, statistik kuzatish va guruhlash kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Mamlakatimizda barqaror farovonlikka erishish uchun turli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, mazkur maqsadni amalga oshirish maqsadida davlat budjetidan 2025-yil uchun 8 635,7 mlrd. so‘m miqdoridagi mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu miqdor jami xarajatlarning 2.5% ini tashkil etadi [1]. Amalga oshirilgan ishlarning natijasi sifatida, Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog‘i (SDSN) va xalqaro ekspertlar tomonidan 2023-yilda e’lon qilingan BRM (SDG index) reytingida O‘zbekistonning 71,1 indeks bilan 166 ta mamlakat orasida 69 o‘rinni egallab, 2022-yilga nisbatan 8 pog‘onaga oshganligini keltirish mumkin. Mamlakatimiz 2022-yilda 69,9 indeks bilan 77 o‘rinda qayd etilgan edi. Bundan tashqari, 2023-yilgi SDG index hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda Barqaror rivojlanishning 10 ta maqsadlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘sish qayd etilgan va ularning orasida sanoatlashtirish, innovatsiya va infratuzilmani rivojlantirish ham mavjuddir[2].

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishning ahamiyati juda ham yuqoridir. Birinchidan, sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish milliy iqtisodiyotning umumiy barqarorlik darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularning kengayishi va modernizatsiya qilinishi mahsulot ishlab chiqarish darajasini oshirib, iqtisodiyotning unumdorligini bevosita yuksalishiga olib keladi. Natijada, mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmi ortib, jahon bozorida mavjud bo‘lgan xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rni mustahkamlanadi va nufuzi ortadi, uning bir yoki ikki turdagi sohaga haddan ortiq qaram bo‘lib qolmasligining asosiy shartlaridan biri bo‘lgan iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga erishiladi. Doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi tendensiyaga ega bo‘lgan jahon bozorida yuqori iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan sanoat korxonalari iqtisodiyotni tashqi ta'sirlardan himoya qilishga yordam beradi.

Ikkinchidan, sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatining ortishi, kapitalni oshishi yoki kamayishi natijasida yakuniy daromadning o‘sishi yoki kamayishining mutanosib miqdorini bildiruvchi multiplikator effektini paydo qiladi. Bunda sanoat korxonalarining olib borayotgan iqtisodiy faoliyati boshqa tarmoqlarda qo‘shimcha daromad va ish bilan bandlikni keltirib chiqaradi. Ushbu samara tufayli aholining tovar va xizmatlarga bo‘lgan umumiy talabi ortib, iqtisodiy taraqqiyot darajasi yanada yaxshilanadi.

Uchinchidan, rivojlangan va kengayib borayotgan sanoat tarmog‘i mamlakatga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishiga zamin yaratadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar raqobatbardosh sanoat tarmog‘iga ega bo‘lgan mamlakatlarga tezroq kirib boradi, chunki investorlar sanoat salohiyatining oshishi natijasida yaratilgan imkoniyatlardan foydalanishdan manfaatdor bo‘ladi. Xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi mamlakatning iqtisodiy o‘sish darajasiga bevosita ta'sir qilib, xalqaro valyutaning kirib kelishiga, mahalliy sanoatning samaradorligini oshirishi mumkin bo‘lgan xalqaro tajriba, ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy boshqaruvning amaliyotga joriy etilishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, ushbu investitsiyalar yangi korxonalarning tashkil etilishiga, zaruriy infratuzilmaning yaxshilanishiga, boshqa sohalar uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish vositalarining mahalliylashtirilishiga va eksport imkoniyatlarining oshishiga olib keladi.

Mamlakatimizda ham investitsiyalarni jalb etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylari oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha jami 352,1 trln. so‘m miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilgan bo‘lib, bundan 100,6 trln. so‘mi ishlab chiqarish

sanoatiga tegishli va bu miqdor jami investitsiyalarning 28,6 % iga teng bo‘ldi. Bundan tashqari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 84,3 trln so‘mni tashkil etib, bu ko‘rsatkichning o‘sish foizi 2022-yilning mos davriga nisbatan 196,4 % ga teng bo‘ldi [2].

Sanoat korxonalarining rivojlanishi texnologik innovatsiyalarning yaratilishi, yangilanishi va amalda qo‘llanilishiga hissa qo‘shadi. Yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarmoya kiritishda sanoat korxonalari yetakchi o‘rinni egallaydi. Mamlakatimizda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha amaliyotga kiritilgan innovatsiyalar va sotilgan innovatsion mahsulotlarning miqdori quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida o‘z kuchi bilan bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmini (QQS va aksizsiz) iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi (2023- yil uchun, mlrd so‘m)

	Iqtisodiy faoliyat turlari	**Hajmi**
	Ishlab chiqarish sanoati	28 087,3
	Axborot va aloqa	23 076,4
	Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	1303,5
	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	1042,6
	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’mirlash	899,1
	Qurilish	627,0
	Ta’lim	192,8
	Tashish va saqlash	99,4
	Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	95,9
0	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	62,4
1	Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	46,2
2	Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	18,5
3	Iqtisodiy faoliyatning boshqa turlari	195,4

Manba: stat.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Sanoat korxonalarining ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga kiritgan investitsiyalari, nafaqat ularning samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yangi texnologiyalarni ishlab chiqilishiga sabab bo‘ladi. Bu innovatsiyalar kamroq xarajat evaziga yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga, ta’minot zanjirlarini yanada samarali qilishga va mutlaqo yangi bo‘lgan sanoat tarmoqlarining yaratilishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim omilidir. Ammo ushbu taraqqiyotga erishishda e’tibor berish kerak bo‘lgan jihatlar mavjud bo‘lib, ularning biri “yashil” innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashdir. Hozirgi paytda, butun dunyo mamlakatlari iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik bilan muvozanatlashtirib, “yashil” texnologiyalar va ekologik jihatdan samarali bo‘lgan amaliyotlarni sanoat ishlab chiqarishiga integratsiya qilishga intilmoqda. Bu jarayonda, tarmoqlar ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritish orqali chiqindisiz ishlab chiqarish usullarini, qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarini, resurslarni tejaydigan uskuna va jarayonlarni amaliyotga joriy etishi mumkin.

Bundan tashqari, sirkulyar iqtisodiyotning tamoyillarini qo‘llash orqali, resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonidagi chiqindilar, shuningdek, xarajatlarni kamaytirish, materiallar va resurslarni bir marta foydalanilgandan so‘ng utilizatsiya qilmasdan, doimiy ravishda qayta foydalaniladigan, qayta tiklanadigan va qayta ishlanadigan tizimni rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

Shunday qilib, sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq oshirish, mamlakatlarga iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Parij kelishuvida va BMTning Barqaror rivojlanish bo‘yicha konferensiyasida qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)da ko‘rsatilgan barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni bajarishga yordam beradi. Ushbu maqsadlarga erishishga intilayotgan sanoat korxonalari mamlakatlarga o‘zlarining ekologik va ijtimoiy maqsadlarini amalga oshirishda ko‘maklashadi, bu esa ularning diplomatik va savdo aloqalarini yaxshilanishiga, global miqyosdagi raqobatbardoshlikning oshishiga va xalqaro maydonda kengroq iqtisodiy imkoniyatlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. BMTTD va O‘zR Iqtisodiyot va moliya vazirligining “O‘zbekistonda barqaror rivojlanishni moliyalashtirish” qo‘shma loyihasini amalga oshirish dasturi doirasida tayyorlangan Fuqarolar uchun budjet 2025 loyihasi. Toshkent – 2024

[2]. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy web-sayti. www.stat.uz

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNI TA’MINLASH SHAROITIDA TA’LIM VA INNOVATSIYALARNING ASOSIY JIHATLARI

Ummatov Avaz Muydinovich
International School of Finance Technology and Science instituti Menejment kafedrasi o‘qtuvchisi
ummatovavazbek6@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish jarayonida ta’lim va innovatsiyalarning rolini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ta’lim tizimini isloh qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va kadrlar tayyorlashda innovatsion yondashuvlar iqtisodiy rivojlanishning muhim omillari sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ta’lim va innovatsiyalar o‘rtasidagi integratsiya, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish, texnoparklar va startaplar uchun infratuzilma yaratishning ahamiyati yoritiladi.